

TERMIZ UNIVERSITETI

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-badiiy gazeta

BESHIKDAN QABRGACHA ILM IZLA!

1990-yil may oyidan chop etila boshlagan

№ 6 (360)-son, 2024-yil 19-aprel, juma

QR kodni skaner qilib,
TerDU web-sahifasiga o'ting!



Termiz davlat universiteti hamda Sotim Ulug'zoda nomidagi Tojikiston xalqaro chet tillar universiteti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi

Xalqaro hamroqlik



REKTORLAR FORUMIDAN REPORTAJ

O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida O'zbekiston – Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining II forumi o'tkazildi.

“2030-yil: O'zbekiston va Tojikistonda oliy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” mavzusidagi anjumanda Tojikiston Respublikasi Ta'lim va fan vaziri Rahim Saidzoda boshchiligida tashrif buyurgan 30 ga yaqin nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlaridan iborat delegatsiya va O'zbekiston tomonidan esa 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, vazirlik va idoralar mas'ullari qatnashdi.

O'zbekiston – Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi yalpi majlis yakuni bo'yicha mamlakatlar oliy o'quv yurtlari o'rtasida 50 dan ziyod bitim, anglashuv memoradumi va yo'l xaritalari imzolandi.

Xususan, Termiz davlat universiteti hamda Sotim Ulug'zoda nomidagi Tojikiston

xalqaro chet tillar universiteti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Ikki oliygo'ra o'rtasida o'qituvchi va talabalarning akademik almashinuvi, oliy va professional ta'limda o'zaro o'quv jarayonlarini tashkil qilish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, tajriba almashish, stajirovka o'tash, ilmiy anjumanlar, dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha kengashlar ishida ishtirok etish, ilmiy loyihalarda birgalikda ishtirok etish kabi yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Bugunga qadar Termiz davlat universiteti va Tojikiston OTMLari o'rtasida 10 ga yaqin hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, shunga asosan o'tgan o'quv yillari davomida 15 nafarga yaqin tojikistonlik professor-o'qituvchilar universitetda ma'ruza mashg'ulotlarini olib borishgan bo'lsa, ayni paytda 10 nafar tojikistonlik talabalar oliygo'ra o'rtasida tahsil olishmoqda.

TerDU matbuot xizmati.

MUHIM MASALALAR MUHOKAMASI



“Bugun tarbiya, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni ota-onasiga, Vatanga, xalqiga, Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi – har qachongidan ko'ra muhim ahamiyatga ega. Dunyoda yuz

berayotgan turli harbiy, siyosiy ziddiyatlar, globallashuv jarayonlari yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini yanada kuchaytirish lozimligini

Kengash

anglatadi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda alohida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan, barchamizni tashvishlantirayotgan jiddiy masalalar bor. Birinchi navbatda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda har birimiz faoliyatimizni tanqidiy ko'rib chiqib, talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to'garak va tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni aniq reja va dasturlar asosida amalga oshirishimiz lozim. Buning uchun esa sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimi bo'yicha jiddiy tahlillar o'tkazish shart. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan ayrim materiallar axloqiy me'yorlarga zidligi barchamizga yaxshi ma'lum. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongiga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladigan kontent esa yetarli emas”.

(2-sahifaga qarang)

AZIZA XOLBOYEVAGA – TAHSIN!

Gurung Termiz davlat universiteti noorganik kimyo mutaxassisligi doktoranti – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Aziza Xolboyevaning respublika miqyosida o'tkazilgan “Olima ayollar” ilmiy loyihalar tanlovining yakuniy bosqichida go'olib bo'lib, 500 million so'mlik grantga munosib ko'rilgani haqidagi xushxabar – ulkan jamoamizni xushnud etdi! Mazkur yutuq ham universitetimiz ilmiy-innovatsion nufuzining yanada yuksalishiga hissa o'laroq TerDuning 70 yillik to'yiga to'yona bo'ldi! Universitet jamoasi olimani navbatdagi yutug'i bilan qutlaydi va kelgusi ilmiy, ijodiy faoliyatiga zafarlar tilaydi!

Temirni qizig'ida bos, deganlaridek Aziza Xolboyevani darhol suhbatga tortdik. Mana shunday ko'tarinki kayfiyatda qahramonimiz Toshkent – Termiz magistrat yo'lida “Termiz universiteti” muxbiri yo'llagan savollarga javob qaytardi...

TAHRIRIYAT



Termiz davlat universiteti
Noorganik kimyo ixtisosligi doktoranti,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
“Kelajak liderlari” klubi
Surxondaryo viloyati vitse-prezidenti,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Aziza Xolboyeva bilan suhbat

“YUTUQLARIMIZNING MUALLIFI O'ZIMIZ!”



Jalinga uskunasi sotib olsak, nani remontini qildirish mutaxassis qayerdan opsak bo'ladi?

(5-sahifaga qarang)



“MILLAT O'Z TARIXINI O'ZI YOZSIN!”

(6-sahifaga qarang)



“YUTUQLARIMNING SIRI – FAQAT HARAkatDA BO'LGANLIGIM DEB BILAMAN!”

(4-sahifaga qarang)



MUHIM MASALALAR MUHOKAMASI

“Universitet jahon andozalariga mos sifatli ta'lim beradigan, ilmiy va innovatsion faoliyatdan daromad keltiradigan ilmiy tashkilotga aylanishi shart”.

Abduqodir TOSHQULOV,

Termiz davlat universiteti rektori, professor.

Termiz davlat universitetida rektor raisligida barcha professor-o'qituvchilar, doktorantlar, mas'ul rahbarlar, tyutorlar (1000 nafarga yaqin jamoa) ishtirokida kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.



Unda jahon andozalariga mos o'quv jarayonlarini tashkil etish, talabalarni mustaqil ta'lim bilan band qilish, ish beruvchilar talabiga asosan kadrlar tayyorlash, ilm-fanda “xarajat – tadqiqot – mahsulot” degan formula asosida ish olib borish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni targ'ib qilish, talaba va professor-o'qituvchilarga sharoitlar yaratish hamda hududni obodonlashtirish borasida bajarilgan ishlar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar to'g'risida so'z bordi.

Ta'kidlash joizki, 2023-yil 106 ta dissertatsiya ishlari himoya qilingan bo'lsa, joriy yil boshidan beri himoyalari 16 taga yetgan. Ilmiy salohiyat 33 foizni tashkil etib, uch oyda 1,3 foizga oshgan. Professor-o'qituvchilar tomonidan 5 ta xalqaro va 4 ta 5 mlrd. so'mlik mahalliy loyihalar yutib olindi. Shulardan 2 tasi YUNESKO tashkiloti grantidir. Ta'lim yo'nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish uchun shartnomalar tuzildi. Nufuzli xorijiy universitetlar bilan 3 ta ta'lim yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturlarini ochish rejalashtirildi. Xodimlar ish samaradorligini baholash (KPI) tizimi asosida professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish yo'lga qo'yildi.

Unga ko'ra 258 nafar pedagog va boshqaruv xodimlariga ustamalar belgilandi.

Shuningdek, rektor tomonidan universitet nufuzini yanada yuksaltirish hamda professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash va

hisoblashilmayotganligi, professor-o'qituvchilarda tashabbus, intilish, fidoyilik yetishmayotganligi kabi muammo va kamchiliklar tanqid ostiga olindi.

– Olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda universitet faoliyatida, shu jumladan, professor-o'qituvchilar harakatida muammo va xato-kamchiliklar ham uchramoqda. Ayrim professor-o'qituvchilarning bilim va pedagogik ko'nikmasi zamon talabiga javob bermayapti. Talabaga mavzu bo'yicha topshiriq berish va ijrosini baholash talab darajasida emas. Talabaga sifatli dars o'tish, uni kutubxonalarda, laboratoriya xonalarida, o'quv amaliyotlarida, ilmiy izlanishlar, ustoz-shogird tadqiqotlari, qo'shimcha dars mashg'ulotlarida to'liq band qilish borasidagi amaliy ishlar sust holatda ekanligi kuzatilyapti, – dedi rektor A.Toshqulov.

Shuningdek, yig'ilish davomida universitetdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatlaridagi kamchiliklar ham bartaraf etilishi lozimligi ta'kidlab o'tildi. Xususan, tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili natijalaridan aniqlangan raqamlarga ko'ra 70% tadqiqot ishlarida innovatsion yondashuvlar mavjud emasligi, ishlarning mahalliyashtirilishiga e'tibor qaratilmayotganligi, davlat grantlarini olish maqsadida topshirilgan loyihalar dastlabki texnik ekspertizadan keyingi bosqichlarga o'tmay qaytayotganligi, Scopus bazasidagi jurnallarda maqola nashr etish talab darajasida emasligi, incho'ndan, 2023-yilda atigi 77 ta (jami professor-o'qituvchilar soniga nisbatan 10%, 20 nafar o'qituvchiga 1 tadan) maqola nashr etilganligi tanqid qilindi.

Yig'ilish davomida rektor A.Toshqulov ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi xususida alohida to'xtalib o'tdi. Yoshlar masalalari yuzasidan bajarilishi zarur bo'lgan qator ishlar haqida bayon etdi.

– Bugun tarbiya, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularni o'ta-onasiga, Vatanga, xalqiga,



Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi – har qachongidan ko'ra muhim ahamiyatga ega. Dunyoda yuz berayotgan turli harbiy, siyosiy ziddiyatlar, globallashtirish jarayonlari yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarini yanada kuchaytirish lozimligini anglatadi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda alohida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan, barchamizni tashvishlantirayotgan jiddiy masalalar bor. Birinchi navbatda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda har birimiz faoliyatimizni tanqidiy ko'rib chiqib, talabalarimiz bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, to'garak va tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni aniq reja va dasturlar asosida amalga oshirishimiz lozim. Buning uchun esa sohadagi muammolarni aniqlash va ularning yechimi bo'yicha jiddiy tahlillar o'tkazish shart. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan ayrim materiallar axloqiy me'yorlarga zidligi barchamizga yaxshi ma'lum. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ongiga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladigan kontent esa yetarli emas, – dedi rektor A.Toshqulov.

Yig'ilish yakunida professor-o'qituvchilar, mas'ul rahbarlar oldida turgan eng dolzarb vazifalar belgilab berildi va endi asosiy e'tibor ta'lim sifatiga qaratilishi ta'kidlandi. Jumladan quyidagi chora-tadbirlar

tizimli ravishda amalga oshirilishi belgilandi. Endilikda universitetda:

Hemis platformasiga barcha fanlardan topshiriqlar joylashtiriladi va shaffof baholanadi;

mustaqil ta'lim maqsadli yoki ma'lum muammoni hal qilishga yo'naltiriladi;

dekan, dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari faoliyatiga baho berish tizimi yo'lga qo'yiladi;

professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hamda shaxsiy ish rejalarini to'liq raqamlashtiriladi;

ilmiy-amaliy markazlar, ishlab chiqarish sanoat zonasi tashkil etiladi;

ilmiy-tadqiqotlarni tijoratlashtirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi;

Scopus ilmiy-texnik bazasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi;

nufuzli oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or tajriba va yutuqlar universitet faoliyatiga joriy etiladi;

talabalar va o'qituvchilar orasida sportni ommalashtirish choralarini ko'riladi;

universitetda yaratilgan xodimlar faoliyati samaradorligi (KPI) tizimi ommalashtiriladi va ustamalar beriladigan pedagoglar soni 350 nafarga yetkaziladi.

Kengaytirilgan yig'ilish kun tartibidan o'rin olgan masalalar muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Odiljon HAMIDOV,
Universitet Kengashi kotibi.

Urganch davlat universitetida KPI tizimini joriy etish yuzasidan seminar tashkil etildi

Urganch davlat universitetida milliy va xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash, professor-o'qituvchilarning faoliyatini jahon standartlari asosida baholash va rag'batlantirib borish maqsadida pedagog xodimlarning mehnat samaradorligini belgilovchi tizim – KPI (Key performance indicator) bo'yicha Termiz davlat universiteti

tajribasi ulashildi.

Seminarida UrDU rektori B.Abdullayev boshchiligidagi prorektor va dekanlar, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari, viloyatdagi OTMlar vakillari ishtirok etdi.

TerDU mutaxassislari, Ta'lim sifatini nazorat qilish va akkreditatsiya boshqarmasi boshlig'i O'.Xoliyorov

TerDU tajribasi

hamda Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi rahbari H.Choriyev tomonidan KPI ko'rsatkichlarini joriy etish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar va kelgusida kutilayotgan natijalar, KPI ning ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishdagi o'rni xususida axborot berildi.

UrDU matbuot xizmati.



Termiz davlat universiteti rahbariyati va universitet Kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasida 2023-2025-yillarga tuzilgan Jamoa shartnomasining 2023-yilda bajarilishiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Jarayon

dastlab, Jamoa shartnomasining 2023-yildagi bajarilish hisoboti tinglandi. Shuningdek, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini ta‘minlash ishlari bo‘yicha kelishuv, Jamoa shartnomasi bandlarining

YILLIK HISOBOTLAR TAHLILI

Unda universitet yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor O.Shofiyev, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari

2023-yildagi bajarilish yakunlari yuzasidan dalolatnoma tasdiqlash hamda 2023-2025-yillarga mo‘ljallab tuzilgan jamoa shartnomasiga



Federatsiyasi Surxondaryo viloyati kengashi raisi o‘rinbosari Q.Bobolov, Surxondaryo viloyati kengashi raisining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Turdiyev va universitet mas‘ullari ishtirok etishdi. Yig‘ilish kun tartibida

2024-yilda kiritiladigan o‘zgarish va qo‘shimchalarni tasdiqlash masalalari muhokama etildi.

Yakunda masalaga doir tegishli qarorlar qabul qilindi. **Samad NISHONOV, Universitet kasaba uyushmasi raisi.**

Antikorrupsiya



PROFILAKTIKA MUHIM!

Universitet rahbariyati va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari ishtirokida oliygohning buxgalteriya, reja-moliya, texnik foydalanish va xo‘jalik, moddiy bazani shakllantirish va xo‘jalik shartnomalari bilan ishlash, ichki audit va moliyaviy nazorat bo‘limlari xodimlari orasida “Jinoyatning kelib chiqish sabablari va ularni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor M.Toshev, korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i U.Devonov, bo‘lim bosh mutaxassisi A.Mansurov, xodimlar

bo‘limi boshlig‘i Ch.Abdunazarov, yuriskonsult M.Po‘latov, universitet kasaba uyushmasi raisi S.Nishonov, ichki audit va moliyaviy nazorat bo‘limi boshlig‘i D.Rashidova hamda boshqa mas‘ul xodimlar qatnashishdi.

Tadbir jarayonida, universitetda davlat mulki, budgetdan va oliygohdan ajratilgan mablag‘larni talon-taroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishining oldini olish va qonunbuzarliklar holatlarining kelib chiqishiga aloqador bo‘lgan mas‘ul shaxslarga nisbatan qonun doirasida ko‘rilishi lozim bo‘lgan intizomiy jazo choralarini qo‘llash xususida kelishib olindi.

Abdulla MANSUROV, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi.

DISSERTATSIYALAR MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILINDI!

Olimlar safida

Termiz davlat universiteti rahbariyati va jamoasi ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan quyidagi professor-o‘qituvchilarni samimiy qutlaydi:



Maxmudov Tursunpulat Davronovich – (Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasida tayanch doktoranti) 08.00.06 – “Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo‘yicha “Mintaqa iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishning optimal tartibga solish mexanizmini takomillashtirish (Surxondaryo viloyati misolida)” mavzusida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);



Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich – (Iqtisodiyot kafedrasida) 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha “Bank tizimini isloh qilish sharoitida tijorat banklari aktivlarining rentabelligini oshirish yo‘llari” mavzusida iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);



Gadoyev So‘hrob Jumakulovich – (Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasida mudiri) 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha “O‘zbekistonda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish” mavzusida iqtisodiyot fanlari doktori (DSc);



Fozilov Sherzod Musurmonovich – (Botanika kafedrasida) 03.00.07 – “O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi” ixtisosligi bo‘yicha “Surxondaryo viloyati sharoitida soya navlarining bioekofiziologiyasi va yetishtirish asoslari” mavzusida biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

TAHRIRIYAT

Davra suhbatlari

DEPUTAT VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Ishtirokchilar: Xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi o‘rinbosari Abduraim Choriyev, viloyat Kengashi deputati Rustam Hamrayev, universitet mas‘ul rahbarlari hamda talabalar.

Erkin mulqot tarzida o‘tgan uchrashuvda xalq vakili sifatida, deputat oldida turgan dolzarb vazifalar, o‘z saylovchilari ishonchini oqlash va ularning manfaatini himoya qilish yo‘lida qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida deputatlar tomonidan hayotiy misollar bilan talabalarga tushunchalar berildi.

Suhbat davomida talabalarni qiziqtirgan savollarga deputatlar tomonidan batafsil javoblar berildi.

Aziza MAHMUDOVA, Milliy libos va san‘at fakulteti talabasi.

SEN KUHLISAN, AZIZ BOLAJON!

Dunyoda quvonch-u shodliklar bisyor. Ammo, ularning hech birini bolajonlarning sho‘x-shodon kulgilari, xursandchiliklariga tenglashtirib bo‘lmaydi.

Beg‘ubor qalblarga quvonch, xush kayfiyat va umid uchqunini ulashish maqsadida Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti rahbariyati viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida bo‘lishib, bemor bolalar holidan xabar olishdi.

Shifoxonada bemor bolalarning ota-onalari bu xayriyadan juda xursand bo‘lishdi, duolar qilishdi, ko‘zlarida yosh bilan o‘z

tilaklarini bildirishdi.

– Bizga shunchalik yordam berayotgan insonlarga rahmat. Ishlariga rivoj bersin, qanday yaxshi niyatlari bo‘lsa, yetishishsin. Hech kimning bolasi kasal bo‘lmasin, – deya duoga qo‘l ochdilar.

Universitetimizda bu kabi xayrli ishlar keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, xalqimizga xos an‘ana va qadriyatlar, mehr-muruvvat hissi mudom ustuvordir.

Jamshid NAZAROV, O‘zbek filologiyasi fakulteti tyutori.

Mehr ulashib...



“Albatta, hamma yutuqlaringizga sabab meni qo‘llab-quvvatlagan ustozlarim deb bilaman. Menga ta‘lim bergan barcha ustozlarimdan minnatdorman”.

“YUTUQLARIMNING SIRI – FAQAT HARAKATDA BO‘LGANLIGIM DEB BILAMAN!”

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

– Aziza opa, avvalo, kuni kecha o‘tkazilgan “Olima ayollar” ilmiy loyihalar tanlovida g‘olib bo‘lganingiz bilan tabriklaymiz! Dastlab mazkur tanlov haqida to‘liqroq ma‘lumot bersangiz...

– Rahmat. Ushbu “Olima ayollar” tanlovi xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi farmoniga asosan ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida tashkil etilib kelinmoqda.

Tanlov yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Uning asosiy maqsadi – respublikamizda xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb qilish, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlarning yangi g‘oya va ishlanmalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdan iborat. Loyiha ijrochilarining tarkibi ham faqat xotin-qizlardan iborat bo‘lishi va qatnashuvchilarning yoshi 45 yoshdan oshmasligi kerak. Mazkur tanlovda, asosan, yosh olimalar, iqtidorli talaba va magistrlar ishtirok etishi mumkin. Tanlovga bir yilda bajarilishi mo‘ljallangan amaliy va innovatsion loyihalar qabul qilinadi.

“Olima ayollar” tanlovinin 78-turida “Tarkibida rux bo‘lgan antibakterial xususiyatga ega modifikatorlar olish texnologiyasini ishlab chiqish” loyihasi bilan qatnashdim, tanlovda jami 517 ta loyiha kelib tushgan, shundan 68 ta olimaning loyihasi tanlovdan o‘tgan va moliyalashtirilgan.

– Ilm izlayotgan inson – ummon ostidagi duru gavharlarni izlash uchun dengiz tubiga sho‘ng‘igan g‘avvosga o‘xshaydi. Maqsadga erishish uchun esa, albatta, ustoz kerak. Jonajon “Termiz universiteti” nashri minbaridan foydalanib, ustozlaringiz xizmatlarini e‘tirof etsangiz...

– Albatta, har bir tadqiqotchining shu darajagacha yetib kelishiga uning ustozlari sababchi, madadkor hisoblanadi. 2011-yilda Termiz davlat universitetiga o‘qishga qabul qilingan bo‘lsam, shundan boshlab ustozim, ilmiy rahbarim, kimyo fanlari doktori, professor Hayit Xudonazarovich To‘rayev bilan 4 yil bakalavr bosqichi, 2 yil magistratura, 3 yil tayanch doktrantura davrida ham birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarimni olib boryapman. Albatta, hamma yutuqlaringizga sabab meni qo‘llab-quvvatlagan ustozlarim deb bilaman. Menga ta‘lim bergan barcha ustozlarimdan minnatdorman.

– Ilmiy-ijodiy faoliyatingiz bilan tanishish jarayonida, to‘g‘risi, hayratlandim. “Mirzo

Ulug‘bek” nomidagi davlat stipendiyasi, “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni sohibasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti laureati ...bu qatorni uzoq davom ettirish mumkin. Bu muvaffaqiyatlarning siri nimada?

– To‘g‘risini aytсам, oddiy oilaning oddiy farzandiman, oilamizda 3 ta qiz farzandimiz, o‘g‘il farzand bo‘lmagan, bosh farzand ekanligim uchun har doim dadamning yuzini yorug‘ qilib yurishni xohlaganman, chunki dadam hech qachon “o‘g‘lim yo‘q” deb o‘ksinmagan, biz uchun hamma sharoitni qilib berishga harakat qilgan, buning uchun ota-onamga rahmat aytaman, hayotda nimagaki qo‘l urmay, harakat qilamanki, g‘olib bo‘lishga – ota-onamni yuzini yorug‘ qilib, mahallada “Ixtiyor akaning qizi g‘olib bo‘libdi, eshitdilaringizmi?” yoki “Ixtiyor aka qizingiz g‘olib bo‘libdi-ya!” degan gaplarni eshitib, dadamning xursand bo‘lib yurishini xohlayman. Bundan tashqari, inson har doim harakat qilishi kerak, hech qachon bitta joyda to‘xtab qolmasligi, muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmasligi kerak deb o‘ylayman. Inson nimagaki erishmoqchi bo‘lsa yaxshi niyat bilan faqat olg‘a intilishi kerak. Yutuqlarimning siri – faqat harakatda bo‘lganligim deb bilaman.

– **Talaba-yoshlarga yuksak marralarga erishgan olimaning sifatida qanday muhim maslahatlar, tavsiyalar berasiz?**

– Bugungi kunda yoshlarimizning ta‘lim olishi uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan, faqat bundan yoshlar oqilona foydalansa bo‘ladi. Albatta, yoshlar o‘z mutaxassisligi sohalari bilan birgalikda xorijiy tillarni bilishi va axborot texnologiya vositalaridan mukammal foydalanishlari zarur. Bu bugungi kunning talabi hisoblanadi, talabalarimiz o‘z ustida ko‘proq ishlab, harakatchanligini oshirib, ko‘plab tanlovlarda faol qatnashsa bo‘ladi, chunki hozir talabalar uchun, ayniqsa, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun juda ko‘p tanlovlar e‘lon qilingan.

– **Hozirgi kunda ta‘lim sifatini yanada oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashda qay muhim jihatlarga alohida e‘tibor berilmog‘i kerak deb hisoblaysiz?**



– Prezidentimiz tomonidan ta‘lim olishimiz uchun, yaxshi kadrlar tayyorlanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Bugun yoshlar xohlagan sohada o‘qishi, faoliyat yuritishi mumkin. Faqat bunday imkoniyatdan biz to‘g‘ri foydalana olishimiz kerak. Malakali kadr bo‘lish uchun inson o‘z kasbini sevishi kerak.

– **Faoliyatingizdan kelib chiqib, o‘z sohagizda qanday yangiliklarni amaliyotga tatbiq etdim deb o‘ylaysiz?**

– Men, asosan yog‘och-qurilish materiallarini termitlardan himoyalovchi, ularning yong‘inga chidamliligini oshiruvchi anti-perin-antiseptiklarni ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy faoliyatimni olib bormoqdaman va bu ilmiy faoliyatning natijasida bu ixtirolarga ikkita patent berilgan va aynan “Olima ayollar” tanloviga ham yangi tadqiqot ishim bilan qatnashdim, ya‘ni antibakterial xususiyatga ega bo‘lgan modifikatorlar hisoblanadi, yanada soddaroq qilib aytganda, masalan, bizda qo‘lqop, salfetka, yoki jarrohlik kiyimlariga qo‘shiladigan modifikatorlar (qo‘shimchalar) odatda xorijdan olib kelinadi va uning tannarxi ham qimmat hisoblanadi. Shuning uchun bunday modifikatorlarni mahalliy arzon xomashyolardan tayyorlash muhim. Aynan hozir amaliyotga shu narsani joriy etish yo‘lida izlanyapman.

– **Kelajakdagi rejalaringiz haqida bayon etsangiz.**

– Kelajakda yurtimizning rivojiga o‘z zimning munosib hissamni qo‘shib, yetuk malakali mutaxassis olim bo‘lib yetishish niyatidaman...

“Termiz universiteti” gazetasi muxbiri Nasiba XO‘JANOVA suhbatlashdi.

YOSH FIZIKLAR KO‘RIGI

Termiz davlat universiteti yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tashabbusi bilan 12-aprel – Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni munosabati bilan fizika-matematika fakulteti talabarlari o‘rtasida o‘tkazilgan “O‘z sohasining mutaxassisi” nomli musobaqadan bo‘lib o‘tdi.



Unda yosh fiziklar 4 ta: fizika fani bo‘yicha demonstratsion (namoyishli) tajriba ko‘rsatib tushuntirib berish, qiziqarli fizikaga oid tezkor savol-javob, mavzulashirilgan masala ishlash hamda kosmik uchish apparatlarini yig‘ish va uni ochiq maydonda harakatga keltirish shartlari asosida o‘zaro

Tatbiq



bellashishdi. Hakamlar hay‘ati xulosalariga ko‘ra g‘olib jamoalar belgilangan pul mukofoti hamda sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Sarvarbek UMAROV, Fizika-matematika fakulteti talabasi.

Ro‘baro‘



“YUTUQLARIMIZNING MUALLIFI O‘ZIMIZ!”

Termiz davlat universitetida MFaktor loyihasi asoschisi hamda Jalinga Global kompaniyasining rivojlanish bo‘yicha direktori Hasan Mamasaidov ishtirokida universitetning yosh liderlari, kelajak rahbarlari – talabalar uchun motivatsion uchrashuv tashkil etildi.

Rektor Abduqodir Toshqulov ochiq va samimiy ruhdagi uchrashuvni ochib berar ekan, bu zalda bo‘ladigan suhbat bugun 70 foiz ishtirokchilarning hayot yo‘llarini keskin o‘zgartirib yuborishiga ishonch bildirdi.

Tajribali tadbirkor va spiker, ustoz-talabalarga muvaffaqiyat va liderlikka erishish sirlarini o‘zining hayoti davomida erishgan yutuq va ba‘zi qiyinchiliklari misolida so‘zlab berdi. Tadbirkor suhbat davomida biznesdagi ilk qadamlari, oilaviy tadbirkorlikning turli jihatlariga ham to‘xtalib o‘tdi.

– Hayotimizda 4 ta asosiy resurs muhim o‘rin tutadi: baxt, energiya, pulga bo‘lgan ehtiyoj va hurmat-izzat statusi – deydi ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan tadbirkor. – O‘z yutuqlarimizning yagona muallifi o‘zimiz.

Yakunda talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

TERDUDA JALINGA INTERAKTIV VIDEOSTUDIYASINI TASHKIL ETISH CHORALARI KO‘RILADI

Kunning ikkinchi yarmida rektor A.Toshqulov hamda yirik tadbirkor Hasan Mamasaidov bilan TerDUda ta‘lim sohasida samarali hamkorlik yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha muloqot bo‘lib o‘tdi.

Muloqot chog‘ida universitetda zamonaviy mediastudiya va Jalinga videostudiyasini tashkil etish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar muhokama qilindi.

Yig‘ilishdan so‘ng, hamkorlar yangi va zamonaviy



ko‘rinishda joriy qilinadigan mediastudiya uchun ajratilgan xonalar bilan tanishtirildi. Zamonaviy ko‘rinishdagi mutlaqo innovatsion dekaratsiya va shinamlikka ega studiya dizaynini yaratish bo‘yicha mas‘ullarga vazifalar yuklatildi.

Shukrullo TOSHPOLATOV,
TerDU rektorining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot kotibi v.b.



TALABALAR TEATRDA!

San‘at odamlarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi, eng go‘zal his-tuyg‘ularni in‘om etadi. Teatr esa oddiy tomoshaxona emas, balki tarbiya, madaniyat, ma‘naviyat va ma‘rifat maskanidir.

Talabalarining darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda yoshlar tarbiyasida teatr san‘atining o‘rni va ahamiyatini oshirish maqsadida Mannon Uyg‘ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan Fridrix Shillerning “Makr va muhabbat” spektakli namoyish etildi.

Termiz davlat universitetining 700 nafardan ortiq talabalarini spektaklni qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Bahriddin BEKBO‘TAYEV,
Milliy libos va san‘at fakulteti talabasi.

E‘tirof

ORKESTR RAHBARI TAQDIRLANDI

“Navro‘z sadolari” xalqaro festivalida TerDU o‘qituvchisi “Eng yaxshi rahbar” nominatsiyasi g‘olibi deb topildi

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida o‘tkazilgan “Navro‘z sadolari” milliy cholg‘ular ko‘p ovozli ansambl va orkestrlari X Xalqaro festivalida 45 dan ortiq turli davlat ansambl va orkestrlari qatnashishdi.

E‘tiborlisi unda milliy libos va san‘at fakultetining “Termiz davlat universiteti xalq cholg‘ulari” orkestr jamoasi ham munosib ishtirok etdi hamda uning rahbari Bekzod Choriyev “Eng yaxshi rahbar” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib deb topildi.

Zarif ZOIROV,

Milliy libos va san‘at fakulteti yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari.



Rishta

TEMURXON NASLI BU...

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi.

Amir Temur – insoniyat tarixidagi eng qat‘iyatli shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda, u haqidagi bilimlarimizda ham hukmdor, zobit, sarkarda, ham jangchi sifatida gavdalanadi.

Termiz davlat universiteti hamda uning qoshidagi akademik litseyda ulug‘ sarkarda Amir Temur tavalludining 688 yilligi munosabati

bilan tadbirlar tashkil etildi.

Tadbirda Sohibqiron bobomiz hayoti va faoliyatiga oid qiziqarli ma‘lumotlar, uning jasorati va matonatini o‘zida aks ettirgan muhim ma‘lumotlar talabalar tomonidan bayon etildi. “Temur tuzuklari” asari asosida o‘tkazilgan viktorina savol-javoblari o‘quvchilar bilimini charxlagan bo‘lsa, ijro etilgan sahna ko‘rinishlari tomoshabinlarda katta taassurot uyg‘otdi.

Doston QUDRATOV,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi o‘qituvchisi.

Aysberg maxrajida

Istiqlol o’z tariximizni o’zimiz yozish uchun imkoniyat yaratdi. Millat o’tmishi, buguni va ertasiga mas’uliyat va daxldorlik tuyg’usi bilan yashashda tarixiy mezonini unutmasligi shart. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy kabi buyuk daholarning o’z davridagi bunyodkorlik ishlari tarixning asl haqiqatini aks ettirgan.

“MILLAT O’Z TARIXINI O’ZI YOZSIN!”

Biz ana shunday ajdodlarimiz bilan nainki faxrlanishimiz, ular yozgan tarixni munosib avlod sifatida davom ettirishimiz – muqaddas burchimizni qalb va aql bilan his etmog’imiz zarur.

Bu jarayonda adabiyot va san’atning milliy tuyg’ular tarbiyasidagi bemisil hissasini ta’kidlash joiz.

O’zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning “Ming bir yog’du” dostoni Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari taassurotlari asosida yaratilgan. Unda ilgari surilgan ilg’or g’oyalar: insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, halollik, to’g’riilik, muhabbat, sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onani e’zozlamoq, ustozni hurmat qilmoq, bilimga intilmoq, mehnatsevarlik, ozodalik, shukronalik kabi ezgu fazilat va qadriyatlar zamonaviy yo’sinda o’ziga xos tahlil etilgan. Ayniqsa, bu ezgu g’oyalar mustaqil hayotga qadam qo’yayotgan yosh avlod uchun nihoyatda muhim.

Ulug’ shoir Alisher Navoiyning fikricha, Ka’ba olam qiblasi bo’lgani kabi ko’ngil ham – o’n sakkiz ming olam mehrobidir. Jism parvarishi barobarida ko’ngil tarbiyasi uchun berilajak e’tibor, qadr ham kam bo’lmasligi darkor. Ana shu dono o’g’itning amali hamisha ustuvormi? Donolar nasihatiga doimo amal qilyapmizmi? Hayot, sharoit, muhit o’rtaga qo’yilgan bu haqqoniy talablarni, ma’rifat taraqqiyosini amalga oshirishga imkon berayotirmi?

Dostonda “Ishq”, “Muhabbat” so’zlarining bosh harfda berilishi ham o’ziga xos mazmunga ega. Masalan:

Parvoz shahdini Ishq bergan! “Xamsa”ning birinchi muallifi ham muhabbatdir! Balki, bu olamning ijodkori, muallifi ham Ishqdur!

Bu yerdagi misollarda “Ishq”, “Muhabbat” so’zlari falsafiy ma’no va umumlashma obraz saifatida xarakterlanadi. Mumtoz adabiyotimizda qo’llangan yor, ishq, may kabi so’zlar ham ramziy timsol, ko’chma ma’no ifodalari egadir. Dostonda:

Layli bilan Majnun birlashuvi Vujud ustidan Ruhning g’alabasi! Shu boisdan bu visol abadiydir! – tarzidagi satrlar bor. Bu yerda Visol abadiyligi tushunchasi yuksak falsafiylik kasb etgan.

Layli va Majnun tiriklikda qovusha olmadi. Bu oshiq-ma’shuqlar hayotda visol topolmay, vafotlaridan keyin topishdilar. Navoiy bu holatni affektiv tasvirlarda ifoda etgan:

**Bir na’shqa soldilar ikkovni,
O’luk kelin-u jonsiz kuyovni.**

Vujudning muvaqqat ekanligi va ruhning abadiyligi bilan bog’liq falsafa sharq adabiyotining o’zak mavzularidandir. Ruh abadiy ekan, bu oshiq-ma’shuqlarning vujudda emas, ruhda birlashishlari ham abadiylikka erishuvidir.

Dostonda “Adolat” so’zining ham bosh harfda berilishi bir necha satrlarda ko’zga tashlanadi. Shoir o’rni bilan bu so’z yordamida yangi so’z hosil qilib, yangi ma’noni ifoda etadi.

**Har xalq, har millat o’z tarixini o’zi yozsin!
Bu – uning adolatnomasi bo’lsin!**

Har millat, har xalqning o’z tarixini o’zi yozishiga da’vat, aslida, ikki ma’noga ega: birinchidan, tarixni yaratuvchi xalqdir. Ikkinchidan, kechmishni solnomaga tizish ya’ni ilmiy bayon etish ham xalqning o’zi va o’z ziyolilari tomonidan bitilishi ham bor gap. Chunki sharqona falsafaga muvofiq farzand otasiga xiyonat qilmaydi va bu tarix uning merosiy mulkidir. Dostonning so’nggi qismlarida shoir o’z xalqiga murojaat etadi:

**O’zing tanla, sayla endi,
Erk, Adolat, Mustaqillik,
Tenglik, Do’slik, Tinchlik nomli shohlarni...**

Bu misralarda bosh harf bilan bitilgan so’zlar xalqning va uning ulug’ farzandlarining asrlar osha orzusi bo’lib keldi.

Zamonamiz ijodkorlari Navoiy ijodiyotini qay darajada ruhlanib o’rgansalar, shunchalik bitmas-tuganmas xazinadan bahramand bo’lib boradilar. Bu tadjir inson botiniy olamining tobora kamol topishida, Ko’ngil, ruh va tuyg’u tarbiyasida dasturulamal bo’lishi, shubhasiz.

**Ahad SHUKUROV,
O’zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.**

Nuqtayi nazar

ASLIDA TYUTOR KIM?

Tyutor – talaba bilan individual va jamoada ishlovchi, ta’lim-tarbiya maslahatchisi

Hozirgi kunda respublikamizning barcha oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik instituti faoliyat yuritib kelmoqda. Xo’sh, bu soha vakillari qanday ishlarni amalga oshiradi. Tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta’lim-tarbiya maslahatchisi bo’lishdan iborat. Bugun ham oliy o’quv yurtlarida talabalarining mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishga ko’maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda.

Biroq, endilikda ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifalari ham avvalgilaridan farq qiladi.

Har qanday yangilik kabi bu yo’nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko’p manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo’lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o’qituvchisi, o’qituvchi, murabbiy, vasiy” degan ma’nolarni anglatadi. “Tyutorlik” so’zi insonning shaxsiy ta’limini qo’llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir.

Ota-ona o’z bolalari uchun doimo qayg’urgani singari bugun ta’lim muassasalari ham talabalarining ilm olishi, kelgusi faoliyatini to’g’ri belgilashiga mas’ullikni his etadi. Talabaga ta’lim berish bilan birga, darsdan bo’sh vaqtda nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari – hammasi oliy o’quv yurti uchun muhim. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo’naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizim va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarining shaxsiy

rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishiga ko’maklashuvchi pedagog bo’lib, u yigit-qizlarni kasbga yo’naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to’garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o’rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug’ullanadi.

TALABAGA ENG YAQIN KO’MAKCHI

Talabalar birinchi bosqichga qabul qilinishi yoki o’qishini ko’chirish orqali kelgani bois, u bilan bog’liq ma’lumotlar bazasi shakllantirilmagan bo’ladi. Har bir tyutor o’ziga biriktirilgan akademik guruhdagi talabalar bilan individual ishlash, universitet yoki dekanat tomonidan berilgan ma’lumotlar shkalasi, jamlanma shakli bo’yicha talabaniqning ism-sharifidan tortib toki uning yashash manzili, qiziqishlari, yaqin qarindoshlari, umuman, barcha ma’lumotlarni so’rab, belgilangan ma’lumotlar bazasini to’ldiradi. Bu ishda tyutorning mas’ulligini yanada oshirish ahamiyatli. Chunki, talabaniqning berilgan ma’lumoti aniqligi, to’g’ri keltirilgani, rasmiylashtirishda xatolikka yo’l qo’yilmasligi e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Yil davomida respublikada ko’plab seminarlarda tyutorlar tomonidan muloqotlar jarayonlari va maxsus so’rovnoma orqali tizimni yanada yaxshilash, amaliyotda uchraydigan turli muammoli holatlar, masalalar, amaliy yechimini kutayotgan ko’plab savollar, taklif va tavsiyalar olindi. Masalan, tyutorlarning hududiy muloqot maydonchasi va tajriba almashinuvlarini yo’lga qo’yish, moddiy-ma’naviy rag’batlantirish tizimini kuchaytirish, “Yil tyutori”, “Eng faol tyutor”, “Eng namunalii tyutor” kabi bir qancha naminatsiyalardan iborat hududiy, respublika bosqichida o’tkaziladigan ko’rik-tanlovlarni yo’lga qo’yish, tyutorlik maqomi va darajasini yuksaltirishga oid me’yoriy asoslarni yaratib borish kabi takliflar shular jumlasidandir.

Termiz davlat universitetida 55 nafar tyutor ish olib bormoqda. Ularning aksariyati bilimli, dunyoqarashi keng, pedagogik va psixologik tajribaga ega munosib xodimlar ekanligiga guvoh bo’ldik. O’ylaymanki, yangi tashkil etilgan tyutorlik tizimi vakillari oldiga qo’yilgan vazifalarni uddalayapti. Eng asosiysi, ular talaba yoshlarning yaqin ko’makchisi, ta’lim jarayonlarida xolis yo’l ko’rsatuvchisiga aylanmoqda.

**Farhod BOLTAYEV,
Xorijiy filologiya fakulteti tyutori**

Izhor



(Badiha)

DUNYOLARGA ALISHMASMAN!

Ona!

Naqadar ajoyib so’z. Shu uch harfdan iborat so’zda olam-olam, ma’no bor. Onalar – Alloh yaratgan, eng buyuk zotlardir, yerdagi farishtalar, onalar – farzandi uchun har qanday vaziyatga tayyor, o’zi yemay yediradi, kiymay kiydiradi...

Farzandini tun-u kun duo qiladi, u betob bo’lganda unga qo’shilib joni og’riydi. Onalar qalbi shunday buloqki, unda mehr-muhabbat tuyg’ulari tinmay qaynab turadi. Onalar qalbi mehrga to’la. Hayot saboqlarini beruvchi jonkuyar, mushfiq.

Oila asosi. Ona mehri har qanday mehrdan ustun.

Yaxshining yomoni bo’lgani kabi onaning qadriga yetmaydigan insonlar ham bor. Lekin ba’zi bir insonlar ona mehrga zor, ularning qalbini ona sog’inchi o’rtaydi...

Jannat yuzli farishtamni sog’inchi meni kundan kunga qiynayabdi, hamma narsadan kechib onamning yoniga borgim, bag’rimga bosib, hidlarini to’yib-to’yib hidlagim keladi. Onam bilan tonggacha suhbat qurardim, kichik bir yutug’imni ko’rib katta bir yutuqdek quvonardilar, menga bundan-da yaxshisiga loyiq ekanimni aytardilar, arzimagan yutug’im sababli ko’zlariga yosh olib quvonchlariga to’lib ketardilar.

Hozir onam bilan faqat telefonda suhbatlashaman, uyga ketgim kelayotganini, ularni juda sog’inganimni bot-bot takrorlayman. Onamni juda-juda sog’inaman.

Onazorimning menga aytgan nasihatlarini, daldalarini qo’msayman. Telefonda meni ovutib qizim, hozir sen, ilm olmasang, ilm ortidan quvmasang, bizning orzu-umidlarimizni qanday amalga oshirasang, deya katta hayotning ostonasi tomon safarbar etishlari meni doim ruhlantiradi. Men bilan faxrlanishlarini, bir kuni katta muvaffaqiyatlarga erishishimni, menday qizlari borligidan faxrlanishlarini aytardilar. Buni aytishimning asosiy sababi har bir inson onasini borida qadriga yetishi lozim.

Bir savol qalbimni emraydi. Ona farzandi uchun hamma narsaga tayyor ekan, nega farzand onasi uchun hamma narsaga tayyor emas?

Farzand ham onasi uchun jonini qurbon qilishi, onasini ko’klarga ko’tarishi ham qarz, ham farzdir.

Har bir inson, onasiga ta’zim qilsa arziydi, shoirlar, yozuvchilar ham asosan ilk bitiklarini onani madh etishdan boshlashi ham bejiz emas. Onaning o’rni hech kim va hech narsa bosa olmaydi, shunday ekan azizlar jannat yuzli volidalarmizning vaqtida qadriga yetaylik, duolarini olaylik, zero, jannat onalar oyog’i ostidadir.

**Shirinjon QO’ZIYEVA,
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.**

ERKIN VOHIDOV – HASSOS SHOIR

Inson qalbi – bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She‘riyat yurak sadosi bo‘lganidan ana shu murakkab tuyg‘ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she‘rni o‘qiganda ko‘ksimiz surur va iftixor tuyg‘ulariga to‘lsa, boshqa bir she‘rni o‘qib xayolga cho‘mamiz, inson dardlariga oshno bo‘lamiz.

Shoirlik – tuyg‘ularning tabiiyligi va haqqoniyligi she‘rxonni ishonтира olishdir. Ishontira olish qobiliyati esa iste‘dodning bir belgisidir. Yozuvchi yoki shoirlarning adabiy-nazariy qarashlari badiiy asarlarni talqin qilishda muhim ochiqch vazifasini o‘tashi dunyo adabiyotshunosligi tajribasidan ma‘lum. Shuning uchun buyuk iste‘dodlarning she‘riyatga, badiiyatga, iste‘dod egalariga, umuman, adabiyot va san‘atga qarashlari maxsus kitoblar holda nashr qilinadi. Bunday ishlarning ikki jihatdan ahamiyati ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Erkin Vohidovning “Shoiru she‘ru shuur” nomli kitobi biz tilga olayotgan masala nuqtayi nazaridan e‘tiborga loyiq. “San‘atning, adabiyotning sharti – barkamollik va mukammallikdir”, deb yozadi unda muallif. Chin ma‘noda o‘zining yakdil adabiy-estetik konsepsiyasiga, shaxs o‘laroq barqaror tutumlariga, poetik olamiga ega ijodkor uzoq-uzoqlardan bahaybat tog‘lar kabi ko‘zga tashlanib turadi.

Ko‘p hollarda bu iste‘dod egalari asrlar qaridan iste‘dodning donishmandona nazarlari nigohlari bilan bugungi kunimizga, kelajakka nazar tashlaydi. Iste‘dodlarning g‘uj-g‘uj bo‘lishi kam uchraydigan hodisa. Iste‘dodning urug‘i ko‘p bo‘lmaydi, degan faktor ham bor gap. Shu bois iste‘dod noyob va yuksak hodisa ekanligi bois ham hamma zamonlarda qadrlanadi. Chunonchi, “Iste‘dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham gavhar, iste‘dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor, iste‘dod shunday bir gulki, uning har bir

ochilmagan g‘unchasida chamanlarning bo‘yi va tarovati bor” (E.Vohidovning Usmon Nosirning “Unutmas meni bog‘im” she‘riy kitobiga yozgan “Chaqmoq umri” nomli so‘zboshisidan).

She‘riyat, adabiyot iste‘dodli yoki majnunsifat kimsalarning qismatidir, degan bir ko‘hna haqiqat ham borki, E.Vohidovning iste‘dod, uning tug‘ma bo‘lishi to‘g‘risidagi qarashlari o‘sha qadim haqiqatlarga muvofiq keladi. Shoir yozadi:

“Barcha iste‘dodlar kabi shoirlik iste‘dodi ham tug‘ma bo‘ladi va bolalikdan o‘zini namoyon etadi. Bu kunduzdek ravshan, haqiqatning o‘zidek ayon. Tug‘ma iste‘dod egasi bo‘lmagan, she‘riyatga havas tufayli adabiyotga kirib qolganlar umr bo‘yi havaskor bo‘lib qoladilar” (“San‘at va tafakkur” maqolasidan).

Adabiyot bag‘oyat go‘zal, maftunkor, haybatli va muzayyan koshonadir. Bu koshonaga havaskorligi bois kirish dushvor. Bu muqaddas dargoh tevaragida aylanib yurguvchi havaskorlarni haydab yuborishga kimsaning haqqi bo‘lmasa-da, . davr, zamon, vaqt iste‘dodlilar va havaskorlarni o‘zining shafqatsiz va ayni paytda adolatli chig‘irig‘idan o‘tkazib beradi.

Biz, har bir she‘r ortida uning egasini ko‘ramiz, muallif ma‘naviy olamini tasavvur etamiz, badiiy matn ortida turgan odam o‘zining samimiyati bilan, haloligi bilan bizni o‘z tuyg‘ularining chinligiga ishonitirmog‘i kerak. She‘r hamisha shoirning qismatidir. Agar shoir o‘ziga, o‘zining qismatiga yarashadigan gapni aytmasa, odamlar unga ishonmaydilar” (“She‘riyat izlanishda yashaydi” maqolasidan).

Chin shoir so‘ziga ishonitiradi, mutaassir etadi. Badiiy adabiyotning obrazlilik masalasi shu o‘rinda namoyon bo‘ladi. Aslida his-tuyg‘ularni, anglangan haqiqatlarni turli bo‘yoqdor so‘zlar, har xil badiiy san‘atlar vositasida yordamida ifoda qilish – badiiy adabiyotning tabiati. Aksar “shoir”lar esa birovlarni rom etadigan, o‘zida “sehrli haqiqat”ni mujassam qilgan, ammo badiiy qiymat jihatidan yuksak (go‘yo) “yolg‘on”ni yozadilarkim,

buning zamirida sharqona mublag‘a san‘ati mujassam. Shu o‘rinda bag‘oyat ibratli bo‘lgani bois E.Vohidov maqolasidan olingan bir rivoyatni keltirib o‘tsak:

“Rivoyat qiladilarki, Nushirvoni odil shoirlarni huzuriga chaqirib aytibdi: “Bu ne betavfiqlikki, siz shoirlar mendek odil shoh davrida yolg‘on she‘rlar yozasizlar? Hech zamonda oshiqning oh-u fig‘oni sahroga o‘t qo‘yadimi? Qiz bolaning kiprigi o‘q bo‘lib oshiq yigitning ko‘kragiga sanchilarmish. Bu gapga kim ishonadi? Xullas, shu bugundan boshlab kim yolg‘on she‘r yozsa boshi dorda, mulki talonda”. Bu farmondan keyin uzoq vaqt hech kim she‘r yozmay qo‘ydi. Nihoyat bir shoir shunday she‘r yozdi:

Tong otsa yulduzlar so‘nar osmonda,
Xo‘rozlar qichqirar Mozandoronda.
Xalafda kechqurun quyosh botadi,
Kechasi odamlar uxlab yotadi.

Nushirvoni odil hech bir yolg‘oni yo‘q, boshdan oxirigacha haqiqat bo‘lgan ushbu she‘rni o‘qib yelkasini qisdi, boshini qashladi va yana farmon berdi: “Shoirlar o‘sha o‘zining yolg‘onini yozaversin”. Shundan: “Shoir so‘zi yolg‘ondur”, degan gap qolgan.

Fuzuliy: “Aldanmaki, shoir so‘zi albatta yolg‘ondur”, deya lutf qilgan. She‘riyatning ana shu “yolg‘on”ida juda chuqur haqiqat, sehrli realizm – ishonitirish san‘atining buyuk kuchi bor.

Aql bovar qilmas bir qonuniyatga ko‘ra kishilar jo‘n aytilgan rost so‘zga emas, o‘sha “yolg‘on”ga ishonadi. Shoirlik qismatiga bardosh berish, uning shon-shuhratiga munosib yashash, eng muhimi, shoir o‘z millatining vijdoni, yuzi, so‘zi va ko‘zi ekanini har doim esida tutishi, albatta, osonmas. Shoir – iste‘dod egasi, shoir – so‘z va tafakkur odami, shoir – iztirobli, dardmand inson, shoir – el-yurt quvonchiga sherik odam... Tabiiyki, shoir zotining tabiati, ta‘rif va tavsifi xususida bunday fikr-mulohazalarni davom ettiraverish mumkin. Ammo she‘r uchun mukammal ta‘rif topib bo‘lmaganidek, shoirlik qismatini ham to‘la-to‘kis ravishda, muxtasar so‘z bilan ifodalash qiyin. Buni faqatgina she‘riy kayfiyat iztiroblarini boshidan kechirgan, “so‘z durlarini terish” bilan mashg‘ul bo‘lgan odamgina anglaydi. Ko‘nglini qog‘ozda aks ettirish uchun munosib so‘z izlagan, so‘zlarni tush ko‘rgan kishigina his etadi. Qaysidir ma‘noda:

“Sen, ey sen, she‘riyat, bo‘lding



Ki qaydin oshino menga,
Keturdin ham safo menga,
Yeturdin ham jaf menga”, – deya hasratini, dildagi safo-yu jafolarni she‘riyatga murojaatan bayon etayotgan Erkin Vohidovdun shoir anglata oladi, ehtimol. Darhaqiqat, she‘rni anglash, so‘zni his etish, so‘zga xiyonat qilmaslik, so‘zga sadoqat ijod ahli uchun bag‘oyat muhim fazilatdir. She‘riyat dargohiga kirib kelayotganlar uchun ham shu mezonlar nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bevosita hayotiy va ijodiy tajribalar jarayonida ba‘zan ijodkorning voqeilikka pishiq-puxta estetik nuqtayi nazari shakllanadi. Shu ma‘noda qaraydigan bo‘lsak, Erkin Vohidov hassos shoir. Ayni choqda, tug‘ma iste‘dod egasini tarbiya qilish degan gap ham nihoyatda muhim. “Ijodkor nafas oladigan havo – adabiy muhitdir. Bu havo toza, musaffo bo‘lmog‘i kerak” (E.Vohidov fikri – N.S.).

Haqrost, iste‘dodning unib-o‘shishi uchun musaffo ob-havo, quyoshday mehribon ustozlarning ko‘ngil harorati va oq yo‘l tilagi kerak bo‘ladi. Shoir o‘zini yozadi. Ijod ahli o‘zi ishongan his-tuyg‘ularni yozsa, boshqalar ham ishonadi. Har qanday badiiy asar zamirida, garchand ijodkorning yozganlari ijtimoiylashgandek taassurot qoldirsa ham, uning ortida odam, ulkan bir qalb egasi – muallif turgan bo‘ladi. Fikrimizni takror bo‘lsa-da, E.Vohidovning purma‘no ifodasi bilan muxtasar etsak: “She‘riyatning buyuk qudrati uning ishonitirish kuchidir”.

Nafisa SATTOROVA,
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

Ilm-fan va innovatsiyalar Xitoyning ommaviy kun tartibida va mamlakatning iqtisodiy o‘shishini rag‘batlantirishga qaratilgan say-harakatlarida asosiy o‘rinda turadi.

Xitoyning ilm-fan va texnologiyaga sarflagan xarajatlari, mamlakatning iqtisodiy o‘shishi sust bo‘lishiga qaramay, bu yil o‘shishi kutilmoqda.

Xitoy moliya vazirligi tomonidan qilingan xomaki byudjet hisobiga ko‘ra, hukumat 2024-yilda ilm-fan va texnologiyaga 371 milliard yuan (52 milliard AQSh dollari) sarflaydi va bu mablag‘ o‘tgan yilgiga nisbatan 10% ga ko‘tarildi. Hisobot mamlakat qonun chiqaruvchi organi – Butunxitoy xalq vakillari kongressining yillik yig‘ilishida taqdim etildi. Hisobotga ko‘ra, jami davlat xarajatlaridan 98 milliard yuan asosiy tadqiqotlarga sarflangan va bu ko‘rsatkich 13% ga oshdi. “Hukumat olimlarning

ILM-FAN VA INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH: XITOIY TAJRIBASI

tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ko‘proq resurslar berishga kirishmoqda, – deydi shanxaylik Xitoy Yevropa xalqaro biznes maktablari iqtisodchisi Albert Xu.

Ilm-fan va texnologiya davlat xarajatlarining o‘shishi oxirgi 5 yildagi eng katta ko‘rsatkichdir, – deb ta‘kidlaydi Nyu-York shahridagi Osiyo jamiyatining siyosatga aloqador institutining Xitoy tahlili markazi rahbari Jing Qianning. 2020-yilda 9 foizga pasayish va 2 yillik o‘shishdan to‘xtab qolgan hukumat o‘tgan yili o‘z xarajatlarini 2% ga oshirdi.

Qianning so‘zlariga ko‘ra, so‘nggi o‘shish hukumatning “ustuvorliklariga chinakam fidokorligini ko‘rsatadi” – deb ta‘kidlaydi. Xitoy so‘nggi yillarda ilm-fanni milliy kun



tartibiga olib chiqdi. Davlat kengashi bosh vaziri Li Qiang yozma kongress hisobotida bu majburiyatni yana bir marta ta‘kidladi: “Biz ilm-fan va texnologiya sohasida o‘zimizga ishonch va kuchni oshirish uchun tezlik bilan harakat qilamiz”.

Iqtisodiy o‘shish Ilm-fan uchun sarmoya kirgizishning oshishi, iqtisodiyot o‘shish maqsadlariga erishish

Smriti MALLAPATY,
“Nature” jurnali katta muxbiri.

uchun kurashayotgan bir paytda, kirib keldi. – Xitoy tizimli o‘tish davrida, – deydi Xu. – Mamlakat ko‘chmas mulk kabi uzoq vaqtdan beri shakllangan tarmoqlarga asoslangan iqtisodiyotdan ko‘ra texnologiyalarni rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratmoqda.

Tadqiqotchilarning aytishicha, AQSh bilan texnologik ustunlik uchun raqobat yana bir turtki beruvchi omildir. Qo‘shma shtatlar Xitoyga sun‘iy intellekt, yarimo‘tkazgichlar va kvant hisoblash kabi sohalardagi asosiy texnologiyalarga kirishni chekladi. “Bu cheklov mamlakatni texnologik o‘zini o‘zi boshqarishga sarmoya kiritishga undadi”, – deydi Avstraliyadagi Sidney texnologiya universitetida Xitoyga e‘tibor qaratgan holda innovatsiyalarni o‘rganuvchi

Jahon tajribasi

Marina Chjan. “Ushbu o‘yinda g‘alaba qozonish uchun Xitoy ilm-fan va texnologiyaga, ayniqsa fundamental tadqiqotlarga sarmoya kiritishi kerak”, deydi Chjan.

Xuning ta‘kidlashicha, ko‘tarilgan xarajatlar “hukumatning ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan katta majburiyatini ifodalasa-da”, bu hali ham mamlakatning umumiy tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining kichik bir qismini tashkil etadi. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, hukumat xarajatlari Xitoyda ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan 3,3 trillion yuanning 11 foizini tashkil qiladi. Ilmiy-tadqiqot xarajatlari hozirda Xitoy umumiy yalpi ichki mahsulotining taxminan 2,6% ni tashkil qiladi; 2020-yilda Qo‘shma shtatlardagi tegishli ko‘rsatkich 3,6% ni tashkil etgan edi.

Ingliz tilidan Xorijiy filologiya fakulteti talabasi Marjona SHOYDULOVA tarjimai.



Termiz davlat universitetida “Yosh kitobxon talabalar ligasi” bo'lib o'tdi. Unda o'n uchta fakultetdan ishtirok etgan jamoalar ikkita shart bo'yicha o'zaro bellashib, bilim va mahoratini namoyish etishdi.

Alohida e'tirof etish zarurki, qiziqarli va murosasiz kechgan bahslarda har bir jamoa vakillari munosib qatnashdi. Shu bois

IDROK O'Z SO'ZINI AYTGANDA...

ham hakamlar hay'ati uchun ilimga chanqoq, zukko kitobxonlar orasidan g'oliblarni saralash jarayoni oson kechmadi. Biroq tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra o'z fakultetlari sharafigini himoya qilgan ishtirokchilar quyidagi o'rinlarni qo'lga kiritdilar:

- 1-o'rin – xorijiy filologiya fakulteti;
- 2-o'rin – milliy libos va san'at fakulteti;
- 3-o'rin – fizika va atematika fakulteti.

Yakunda g'oliblar bazaviy stipendiya miqdorining 3, 2 va 1 barobari miqdorida pul mukofoti hamda diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

Otabek ESHQUVATOV, Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi



KONFUTSIY SABOQLARI “HAYRATSIZGA O'QISH HAYF!”

Lavhdagi najot



Fan Chi:
— Bilim nima, deb so'radi.
Ustod shunday javob berdi:
— Xalq yo'lida haqni tiklash,
Ins-u jinsning hurmatini qilib,
xizmatiga kirmaslik, —
Bilimdan muddao shul!
Fan Chi yana:
— Himmat nima, deb so'radi.
Ustod shunday javob berdi:
— Himmatning qiymati — zahmatdir,
Rahmat yog'ishi — oqibat;
Himmatdan maqsad shul!

Ustod debdir:
— Yaxshilar do'st bo'lmasa,
O'qishni xushlamasa, burch yo'lin
ushlamasa,
Qusurni rostlamasa, —
Anga azador boshim!..

Ustod so'zidirkim:
— Kuymaganning ko'zini ochma,
Hayratsizga o'qish hayf!
Bitta burjni o'lchab,
Qolgan uchtasidan mujda
topmaganga
Bo'lishma!..

Ustod debdir:
— Bilimni ona qornidan olib
tushmaganman;
O'tmish qonimda-yu, o'qishdan
to'xtamasman!

Ustod aytibdir:
— Har uch o'tkinchidan biri menga
pirdir;
To'g'ridan qo'l olaman.
Bukridan bukilmalikni o'rganaman.
Egridan uyalaman.

Ustod aytibdir:
— Elni kuch bilan itoatga o'ndirsang ham,
Kuch bilan ilm otiga mindirolmaysan!

Ustod aytibdir:
— Qashshoq o'ktam kelsa,
Qulga o't tekkani shul!
Eldan himmat ketsa,
Yurtga o't ketgani shul!

Ustod debdir:
— Yo'lga kirolmasliging,
Jilov tutolmasligingni bilsang, —
Joningga o'qish ora kiradi!

Ustod yovvoyilar orasiga borib
yashashni ixtiyor etdi.
Birov aytdiki:
— Bunga yo'l qo'ymaymiz! Ular
yomon odamlar!
Ustod shunday debdir:
— Bu qanday gap?
O'zing yaxshi bo'lsang, yomon nima
qilsin?

Ustod aytibdir:
— Hokimi haq topilsa,
Bir pusht o'tmay, mutloq poklar
tug'iladi!

Ustod so'zidirkim:
— Qat'iyatli,
Hamiyatli,
Kamgap bilan
Hamgap bo'lsang,
Hamdard topdim, deyaver!

Birov so'rabdir:
— Yomonlikka yaxshilik qaytarsa,
Qanday bo'larkin?
Ustod aytibdir:
— Unda, yaxshilikning haqi nima?
Yomonga g'ayirlik qilma,
Xayrning haqi xayrdir!

Ustod so'zidirkim:
— Udumni bilgan, ulusni biladi!

Ustod so'zidirkim:
— Komil kishi uch narsadan tashvish
tortadi:
Xudoning xohishi,
Avliyoning koyishi,
Ulug'larning toyishidan!..

Ustod aytibdir:
— Ko'cha gapiga kuch berganning
miyasi puch keladi!..

Ustod debdirkim:
— Bitta qorin g'ami bilan
Kunni kech qilmoq og'ir.
Hammaning ko'ngli shu bo'lsa,
Dunyo oxir bo'pti, oxir!

Rus tilidan Sa'dulla AHMAD
tarjimasini.

EYNSHTEYN – “SAVODSIZ”!

Bir kuni Albert Eynshteyn poyezdga chiqqancha yaqin masofadagi manziliga oshiqar edi. U o'rindiqqa o'tirib, biroz avval vokzal maydonidagi bolakaydan xarid qilgan gazetasini varaqladi va so'nggi dolzarb yangilikka ko'z yugurtirmoqchi bo'ldi. Afsuski, u ko'zoynagini unutgan ekan. Shunda nima qilarini bilmay vagonda patnis ko'tarib xizmat qilib yurgan yigitni oldiga imladi va gazetadagi “dolzarb yangilik”ni barmog'i bilan niqtab dedi:
— Mana shu yangilikni o'qib berolmaysizmi...

Olim gapini tugatmay yigit unga shartta javob qaytardi:
— Kechirasiz, janob! Men ham siz kabi savodsizman...



Tabassum

QO'LINGDAN KELSA...

Kunlardan bir kun Rasul Hamzatov bozorda ilk muhabbatini uchratib qoladi.

Meva-cheva rastasida olma sotayotgan, haliyam yoshligidagi husn izlari yo'qolmagan bu ayolning ishqida shoir bir zamonlar tunlarni bedor o'tkazib, sevgilisiga bag'ishlab turkum she'rlar yozgan edi. O'zaro hol-ahvol so'rashgach, ayol nogoh shoirga iddao qilib, so'z qotadi:

- Seni kim shoir qilganini bilasanmi, Rasul?
- Bilmayman, — deydi shoir kulimsirab.
- Seni men shoir qilganman-ku, men!

Nahotki buni unutgan bo'lsang? Mening ishqimda kuyib-yonib, iztirob chekib, ilhomlanib she'rlar yozganing uchun shoir bo'lgansan.

— E ha, shundaymi? — deydi shoir jilmayib. — Agar shoir qilish qo'lingdan kelsa, militsioner eringni ham shoir qilib ko'r-chi?!



<p>ISSN:20199203 20199203</p> <p>TERMIZ UNIVERSITETI</p>		<p>Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 2018-yil 17-martda 11-004-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.</p>		<p>Mas'ul kotib: Alibek Omonturdiyev</p>	
<p>Bosh muharrir: Shofiyev Obid Baxtiyorovich</p>		<p>Hamkorimiz: Termiz davlat universiteti</p>		<p>Navbatchi muharrir: Nasiba Xo'janova</p>	
<p>Muassis: «Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazi» MCHJ</p>		<p>Tahrir hay'ati: Abduqodir Toshqulov Bekpo'lat Umurqulov O'ral Xoliyovov Zarifa Annayeva Nuriddin Achilov</p>		<p>Sahifalovchi: To'ra Rahmonqulov</p>	
<p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>		<p>Gazeta oyida ikki marta chop etiladi. Tahririyat manzili: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: +99893-222-20-21. Elektron manzil: termizuniversiteti@umail.uz</p>		<p>Bosishga topshirish vaqti – 16.00 Topshirildi – 16.00</p>	
		<p>Bahosi kelishilgan narxda. Hajmi 2 bosma toboq. Qog'oz bichimi A-3. Adadi – 1000. Buyurtma №G-150</p>		<p>Gazeta «Termiz universiteti» tahririyatining kompyuter markazida terildi va sahifalandi.</p>	
		<p>Bosmaxona manzili: Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A-uy. Gazeta «Surxon tongi», «Заря Сурхана» birlashgan tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>			